



PEDAGOG-TARBIYACHINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING YONDASHUVLARI

Uteuliyev J. N.

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti 2-kurs magistranti

Tayanch soʻzlar: pedagog-tarbiyachi, axborot kompetentligini shakllantirish, rivojlantirish, taʼlim, bilim, maʼlumot, axborot-kommunikatsiya va texnologiyalari, texnologiyalar va zamonaviy texnik vositalar.

Ключевые слова: педагог-воспитатель, формирование и развитие информационной компетентности, образование, знания, информация, информационно-коммуникационные и технологии, технологии и современные технические средства.

Key words: teacher-educator, formation and development of information competence, education, knowledge, information, information and communication technologies, technologies and modern technical means.

XXI asr - taʼlim, bilim, maʼlumot, axborot-kommunikatsiya va texnologiyalari asri hisoblanadi. Ommaviy kompyuterlashtirish, innovatsiyalarini joriy etish va rivojlantirish axborot texnologiyalari sanoat ishlab chiqarishida yutuqlarga olib keldi.

Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlim tashkilotlarda pedagog-kadrlarni ilmiy salohiyati va kasbiy kompetentligini oshirish boʻyicha tizimli ishlarni tashkil qilishga alohida eʼtibor qaratilmokda. Jumladan, “Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisidagi” 2019yil 17-dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi qonuni, maktabgacha taʼlim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solish boʻyicha ustuvor vazifalar belgilangan. Shu nuqtayi nazardan hozirgi kunda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligining barcha kompetensiyalarni oshirish, yuqori malakali kadr tayyorlashda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda mehnat bozorida pedagog-tarbiyachining ularga qoʻyiladigan kasbiy talablar mutaxassislarining raqobatbardoshligi oshdi. Boshqalar qatori zamonaviy pedagog-tarbiyachining fazilatlariga, axborot va kommunikatsiyalardan professional foydalanishni: texnologiyalar va

zamonaviy texnik vositalar; rivojlangan aloqa muhiti; axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash, yangi bilimlarni olish va h.k. o‘z ichiga qamrab oladi. Shu sababli, keng kompetensiyalar qatoriga alohida o‘rinni axborot kompetensiyasi egallab kelmoqda.

Pedagog-tarbiyachining axborot kompetentligi tushunchasi “jamiyat va ta’limning axborotlashtirilishi sharoitlarida pedagogik vazifalarni samarali hal qilish imkonini beradigan axborot jamiyati subyekting kasbiy va o‘ziga xos bilimlari, mahorati va sifatlarining integratsiyalashuvi asosida yuzaga keladigan murakkab individual-psixologik hosila” sifatida belgilanadi.

Tadqiqotlarida ko‘rsatib o‘tilganki, «axborot kompetensiyasi» va «axborot kompetentligi» tushunchalari -pedagogikaning hozirgi rivojlanish bosqichida yetarlicha keng va samarali aniqlangan (Dvovskiy S.I., Tarov V.P., Muratova O.B. Zayseva, A.L. Semyonov, N.Yu. Tairova, O. M. Tolstoy). [2,3,].

IFLA(International Federation of Library Associations) prezidenti Kay Raseroka «axborot kompetensiyani» tushunchasini savodxonlik «uning turli qirralarini belgilaydigan atamalar orqali, Bu kompyuter savodxonlik; raqamli savodxonlik, informatsion texnologiya savodxonlik, resurslardan vakolatli foydalanish Internet; kutubxona resurslaridan oqilona foydalanish; vakolatli foydalanish ommaviy axborot vositalari; ko‘p tomonlama kompetensiya; og‘zaki savodxonlik kabi tushunchalarni ilg‘or suradi. [1].

Sh.S. Sharipovaning tadqiqot ishida, kasbiy kompetentlikning takomillashtirilgan tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilgan va axborot kompetensiyasi xaqida fikr yuritilib, “axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar bo‘yicha kompetensiya – ixtisoslik fani o‘qituvchisining axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli va samarali foydalanish, turli xil informatsion resurslar bilan ishlash, doimiy ravishdagi mustaqil bilim oshirish faoliyati, raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasidir” deb ta’rif berilgan.

Pedagog-tarbiyachining kasbiy malakasiga zamonaviy talablarni aks ettiruvchi pedagogning axborot kompetentligi struktura tuzish uchun modellashtirishga umumiy yondashuvlarni, uning tuzilmasidagi asosiy komponentlarni guruhlash tamoyillarini nazariy asoslash zarur bo‘ladi. Malakaviy talablar odatda ko‘p jihatdan o‘qitish maqsadini va bundan kelib chiqib, uning mazmuni, metodlar, vositalarini belgilab beradigan “mutaxassis modeli (yo‘nalishi)”ga olib kelinadi. Klassik yondashuvga binoan bu talablar malakaviy shkalalar (taksonomiya) asosida mutaxassis bilimiga, mahoratiga, ko‘nikmalariga va shaxsiy sifatlariga talablar ko‘rinishida shakllantiriladi.



Mazkur yondashuv o'zining afzal tomonlariga qaramasdan, kasbiy yoki o'quv-kasbiy faoliyat uchun emas, balki o'quv-bilishga doir faoliyat uchun ko'proq mos keladi.

Kompetensiyalar deganda AKT asosida mazkur guruhdagi pedagogik vazifalarni (pedagogik diagnostika vazifalari, pedagogik loyihalash vazifalari va shu kabilar) hal qilishga qobiliyatini tushunamiz[4]. Ya'ni, shaxsning o'zaro bog'langan sifatлари, faoliyat bo'yicha bilim, mahorat va ko'nikmalarning uyg'unlashgan shakli jamlanmasini tushunamizki, bunda ular ta'lim rivojlanishining hozirgi zamondagi bosqichida qo'yiladigan kasbiy maqsadlarga erishish imkoniyatini beradi.

Axborot kompetensiyasi - bu bilim, ko'nikma va malakaga egalik qilishdir, ulardan yangi axborot texnologiyalari yordamida ma'lum bir ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal qilishda foydalanish tajribasi, shuningdek qobiliyat kasbiy sohadagi bilim va tajribalarini takomillashtirish. Bir vaqtning o'zida bilim, ko'nikma va sharoitlarda o'zini tutish usullarini safarbar qilish aniq faoliyati tushuniladi.

Axborot kompetentlik - bu integral sifat shaxsiyat, bu tanlov, o'zlashtirish, qayta ishlash jarayonlarining aksi natijasidir, axborotni optimal maxsus turga aylantirish va yaratish rivojlantirish, qabul qilish, bashorat qilish va amalga oshirishga imkon beradigan bilim faoliyatning turli sohalarida optimal yechimlarni topa olish qobiliyatidir.

Umumiy didaktik nuqtayi nazardan quyidagi shakllanish bosqichlari texnik ta'lim tizimidagi mutaxassislarning axborot kompetensiyasi: kompyuter savodxonligi, axborot savodxonligi, axborot kompetensiyasi.

Kompyuter savodxonligi - minimal bilim va ko'nikmalar to'plamini o'zlashtirish, shaxsiy kompyuterda ishlash, informatika asoslari va ma'nosini tushunish, jamiyat hayotidagi axborot texnologiyalarini o'zlashtirish. Kompyuter savodxonligi axborot jamiyatida inson faoliyati uchun yetarli emas.

Axborot savodxonligi- axborot belgilar bilan kurashishning eng yaxshi usuli, modellar, ma'lumotlar, ma'lumotlar va ularni manfaatdor iste'molchiga taqdim yetish, nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun; takomillashtirish mexanizmlari, axborotni ishlab chiqarish, saqlash va uzatish uchun texnik muhit; tizimni rivojlantirish, o'qitish, odamni axborot resurslaridan samarali foydalanishga tayyorlash, axborot va telekommunikatsiya bilimlardan xabardorligi.

Pedagog-tarbiyachi professionalizmi darajasiga zamonaviy talablarni modellashtirishda mazkur yondashuvning qo'llanilishi kasbiy ta'limning



rivojlanishidagi umumjahon tendensiyalari hamda uning ilmiy paradigmasining o‘rin almashinuvi bilan bog‘liqligi muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Глоссарий терминов рынка труда, разработки стандартов образовательных программ и учебных планов. Европейский Фонд образования [Текст]. — ЕФО, 1997.
2. Двореский С.И., Таров В.П., Муратова Е.И. Информационные технологии в подготовке инженеров // Высшее образование в России. 2001. №3. С.130-135.
3. Петухова Т.П. Современная парадигма информационного общества как основа стратегии формирования информационной компетенции специалиста // Вестник Оренбургского государственного университета. 2005. №1 (39). С. 116-123.
4. Савелева О.А. Развитие информационной и коммуникативной компетентностей в системе информационной подготовки студентов-психологов на основе информационно-образовательной среды: Дис. ... канд. пед. наук/ Красноярск, 2004.
5. Mavlonov N.Sh Raqamlashtirish muhitida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirish p.f.f.d.(RhD) dis.avtoreferat – T.: 2023. 57 b.
6. Olimov Q.T., Mavlonov N.Sh. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini pedagog kadrlar bilan ta’minlash va ularning kompetensiyasini oshirish jarayonining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari. /– B. 21-23
7. N.Sh.Mavlonov The impact of the use of digital technologies on improving the quality of work of preschool organizations// <https://doi.org/10.5281/zenodo.8036458>.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада педагог-тарбиячиларнинг ахборот компетентлигини шакллантириш ва ривожлантиришнинг йўллари тўғрисида сўз боради.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о путях формирования и развития информационной компетентности педагогов-воспитателей.

SUMMARY

This article talks about ways to form and develop the information competence of educators.